

Davlat dasturi

// 05.01.2026

<https://uzkiyosanoat.uz/oz/press/state-program/davlat-dasturi>

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" PF-16-son Farmoni bilan tasdiqlangan davlat dasturida "O'zkiyosanoat" AJga bir qancha vazifalar belgilangan.

PF-16 ijrosi yuzasidan "O'zkiyosanoat" AJ mas'ulligidagi vazifalar yuzasidan ma'lumot.

"O'zkiyosanoat" AJ tarmoq korxonalari ("Navoiyazot" AJ, "Maxam-Chirchiq" AJ va "Farg'onaazot" AJ) tomonidan issiqxona gazlarining hosil bo'lishini (joylari, miqdori) birlamchi xatlovdan o'tkazish ishlari amalga oshirilib, vaqtinchalik qo'llanma (PROONda keltirilgan ko'rsatkichlarga asoslangan holda formula) asosida hisob-kitob qilindi.

Birlamchi xatlovga ko'ra:

"Navoiyazot" AJda 2024-yilda-655 ming tonna (CO2 ekv);

"Maxam-Chirchiq" AJda 2024-yilda-2,07 mln tonna (CO2 ekv);

"Farg'onaazot" AJda 2024-yilda-500 ming tonna (SO2 ekv) issiqxona gazlari tashlamalari aniqlandi.

Keyingi qadamlarda "O'zkiyosanoat" AJ tarmoq korxonalari ("Navoiyazot" AJ, "Maxam-Chirchiq" AJ va "Farg'onaazot" AJ) uchun issiqxona gazlarini vaqtinchalik hisoblash mezonlari (metodika, formula) shakllantirilib, yagona (xalqaro yoki Respublika miqyosida kuchga ega) qo'llanma tasdiqlanishiga qadar hisob-kitoblar olib boriladi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi "yashil iqtisodiyot loyihalari markazi" va O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Hidrometeorologiya markazi bilan hamkorlikda issiqxona gazlarini aniqlash, hisoblash va xatlovdan o'tkazish bo'yicha yagona (xalqaro yoki respublika miqyosida kuchga ega) qo'llanma (metodika) ishlab chiqilishi bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda..

Bundan tashqari, yuqorida keltirib o'tilgan vazirliklar bilan CVAM tizimini joriy qilish bo'yicha ham muzokara va o'rganishlar olib borilmoqda.

Qo'shimcha ravishda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ma'lumot

Joriy yilning 17-fevral kuni S&P Global kompaniyasi tomonidan ESG xalqaro reytingi berildi.

Shuningdek, mazkur Farmon ijrosi yuzasidan CAEx ko'rgazma majmuasida o'tkazilgan "Eco Expo Central Asia-2025" xalqaro ekologik texnologiyalar ko'rgazmasida "Maxam-Chirchiq" AJ, "Navoiyazot" AJ va "Dehqonobod kaliy zavodi" AJlar faol qatnashdi.

Ko'rgazmada ilg'or "yashil" texnologiyalar, chiqindilarni boshqarish, suv resurslarini tejash va qayta tiklanuvchi energetika sohalaridagi eng yaxshi yechimlar namoyish qilindi.

"Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili" doirasida tashkil etilgan tadbirda "Maxam-Chirchiq" AJ, "Navoiyazot" AJ va "Dehqonobod kaliy zavodi" AJlar atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologiyaga ta'sirni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni qamrab olgan taqdimotlari va ishlab chiqarilgan mahsulotlari bilan ishtirok etishdi.

"Yashil makon" umummilliy loyihasi-2025

2025-yilda jami 200 gektar yerga 500 ming dona manzarali va mevali daraxt hamda buta ko'chat ekilishi rejalashtirilgan.

Bugungi kunga qadar bahor mavsumida tarmoq korxonalarida 30 gektar yerga jami 491,6 dona, shu jumladan korxonalarda 367 ming dona hamda rahbar va ishchi xodimlar xonadonlarida namunaviy ravishda 124,6 ming dona manzarali va mevali daraxt hamda buta ko'chatlari ekilib, 5 gektardan ortiq yerlarda "yashil belbog'"lar yaratildi. Katta avtomobil yo'llarining ikki chetlariga 10 qatordan manzarali daraxtlar ekildi va tomchilab sug'orish tizimi yo'lga qo'yildi.

Ekilgan daraxtlarni parvarishlash va ularning unib-o'sishlari uchun korxonalarda tomchilab sug'orish tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha mas'ul shaxslar tayinlanib ko'chatlar tomchilab sug'orish tizimi bilan

ta'minlanib kelinmoqda.

Investitsiya yo'nalishi bo'yicha.

"Navoiyazot" AJ tomonidan texnologik klasterlar uchun 300 MVt fotoelektr stansiyasini tashkil etish loyihasi.

2024-yil yanvar oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xitoy Xalq Respublikasiga amalga oshirgan oliy darajadagi tashrifi doirasida ushbu davlatning Sinoma kompaniyasi bilan loyihani amalga oshirish yuzasidan tegishli kelishuv imzolandi. Shu bilan birga loyiha doirasida maxsus texnik ishchi guruh tashkil etilib, 2024-yil 3-may kuni "Toshkent III Xalqaro investitsiya forumi" doirasida PPA shartnomasini imzolash marosimi o'tkazildi. Shuningdek 2024-yil noyabr oyida Investor hamda Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi o'rtasida investitsiya bitimi imzolandi.

Bugungi kunga kelib loyihani amalga oshirish yuzasidan Navoiy viloyati Karmana tumanidan tegishli yer maydonlari ajratilib, loyiha doirasida qurilish ishlari amalga oshirilmoqda.

"Acwa Power UKS Green H2" MChJ QK tomonidan 52 MVt shamol elektr stansiyasi va yiliga 3000 tonna "yashil" vodorod" ishlab chiqarishni tashkil etish loyihasi.

2022-yil dekabr oyida "Acwa Power UKS Green H2" MChJ qo'shma korxonasi ("Acwa Power"-80% va "O'zkimyosanoat" AJ-20%) tashkil etildi, shuningdek, 2023-yil noyabr oyida xorijiy hamkor bilan "Elektroenergiyani sotib olish" (PPA), "Vodorod sotib olish" (HPA) va Elektr ta'minoti (ESA) shartnomalari hamda 2024-yil aprel oyida yerni ijaraga berish shartnomasi (LLA) imzolandi;

"EPC" pudratchi Xitoyning "Power China Huadong Engineering Corporation Limited" kompaniyasi tomonidan qurilish ishlari yakunlanmoqda hamda asosiy texnologik uskunalar- 20 MVt quvvatdagi elektrolizyorlar o'rnatildi.

Loyihaning qiymati 88 mln dollarga teng bo'lganligi sababli ushbu loyihani moliyalashtirishga (Senior Loan - Project Financing) va 60,0 mln dollarga teng kredit ajratishga 2024-yilning 25-iyun kuni Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining kredit qo'mitasi va kuzatuv kengashidan rozilik olingan.

Mazkur loyiha "O'zkimyosanoat" AJ va Saudiya Arabistonining "ACWA Power" kompaniyasi "ACWA Power UKS Green H2" qo'shma korxonasi negizida amalga oshirilmoqda. Loyiha bo'yicha yiliga 3 ming tonnadan ortiq yashil vodorod ishlab chiqariladi va mineral o'g'itlarga qayta ishlanadi.

Shuningdek, "ACWA Power" xalqaro energetika kompaniyasi boshqaruvi raisi Muhammad Abunayyan Toshkent viloyatining Chirchiq shahridagi yashil vodorod ishlab chiqarish korxonasiga tashrif buyurdi.

E'tiborli jihati shundaki, yashil vodorod ishlab chiqarish jarayonida atrof-muhitga zararli tashlanmalar chiqarilmaydi, neft yoki tabiiy gaz kabi qazib olinadigan yoqilg'idan foydalanishni kamaytiradi va iqtisod qilish imkonini beradi. Bu esa "Atrof-muhitni muhofaza qilish va "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish yilida ko'zlangan maqsadlarga erishish imkonini beradi.

Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, ushbu loyiha ishga tushilishi bilan O'zbekiston dunyoda yashil vodorod ishlab chiqariladigan 7-mamlakat, MDH mamlakatlari orasida 1-davlat bo'ldi.